

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



JISMONIY MADANIYAT
PHYSICAL CULTURE

MILLIY XALQ O‘YINLARIDA VATANPARVARLIK RUHI

Raxmonova Maxfuza Xolmuradovna

Qarshi davlat universiteti, dotsent

Qarshi, Uzbekiston

Email: Maxfuza.Raxmonova.15@mail.ru

Tel: + 998 93 937 8937

Annotasiya: Bugungi kunda globallashtirish jarayonida milliy o‘zlikni saqlab qolish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Milliy xalq o‘yinlari har bir xalqning tarixiy xotirasi, urf-odati, ma’naviy dunyosi va milliy o‘zligini ifodalaydi. Ular nafaqat bolalarni jismonan chiniqtirish, balki ularni axloqan, estetik va ma’naviy jihatdan tarbiyalashda ham muhim vositadir. Shu nuqtai nazardan, xalq o‘yinlarini nafaqat sport va ko‘ngilochar vosita, balki kuchli tarbiyaviy ahamiyatga ega vosita sifatida qayta baholash zarur. Ushbu maqolada milliy xalq o‘yinlarida mujassam bo‘lgan vatanparvarlik ruhi, uning yoshlar ongiga ta’siri va tarbiyadagi o‘rni asosida tahlil qilinadi. Umuman olganda, xalq o‘yinlarining har biri nafaqat tarbiyaviy-ma’rifiy qimmat bilan, balki xalq dunyoqarashi, tafakkur tarzining o‘ziga xos yozilmagan qomusi ekani bilan ham qimmatlidir.

Kalit so‘zlar: *Xalq o‘yinlari, jasorat, matonat, do‘stlik, ahillik, hamjihatlik, mehnatsevarlik, mehr-saxovat, halollik va poklik.*

THE SPIRIT OF PATRIOTISM IN NATIONAL FOLK GAMES

Annotation: Today, in the process of globalization, the issue of preserving national identity and educating the younger generation in the spirit of patriotism remains relevant. National folk games represent the historical memory, traditions, spiritual world and national identity of each nation. They are an important tool not only for physically training children but also for their moral, aesthetic and spiritual upbringing. From this point of view, it is necessary to reassess folk games not only as a means of sports and entertainment, but also as a means of strong educational value. This article analyzes the spirit of patriotism embodied in national folk games, its impact on the minds of young people and its role in education. In general, each of the folk games is valuable not only for its educational and educational value, but also for the fact that it is a unique unwritten dictionary of the people's worldview and way of thinking.

Keywords: *Folk games, courage, fortitude, friendship, harmony, solidarity, hard work, generosity, honesty and purity.*

ДУХ ПАТРИОТИЗМА В НАЦИОНАЛЬНЫХ НАРОДНЫХ ИГРАХ

Аннотация: Сегодня, в процессе глобализации, вопрос сохранения национальной идентичности и воспитания подрастающего поколения в духе патриотизма остается актуальным. Национальные народные игры представляют собой историческую память, традиции, духовный мир и национальную идентичность каждого народа. Они являются важным средством не только физической подготовки детей, но и их нравственного, эстетического и духовного воспитания. С этой точки зрения необходимо переоценить народные игры не только как средство спорта и развлечения, но и как средство, имеющее сильное воспитательное значение. В данной статье анализируется дух патриотизма, воплощенный в национальных народных играх, его воздействие на сознание молодежи и его роль в воспитании. В целом, каждая из народных игр ценна не только своей воспитательной и образовательной ценностью, но и тем, что она является уникальным неписанным словарем мировоззрения и образа мышления народа.

Ключевые слова: Народные игры, мужество, стойкость, дружба, согласие, солидарность, трудолюбие, щедрость, честность и чистота.

Kirish. Xalq o‘yinlari bu - xalq ijodiyotidir. Ko‘pchilik xalq o‘yinlari o‘zida Vatan himoyasini aks ettirgan. Zero, vatanparvarlik tuyg‘usi, Vatan himoyasi har bir xalqning oliy qadriyati hisoblanadi. O‘zbek xalqi milliy xalq o‘yinlari fasllarga moslanganligi, unda hayotiy masalalar aks etganligi bilan ajralib turadi. O‘yinlarni tashkil etish, o‘tkazishda, albatta har bir ishtirokchining jismoniy sifati, irodasi, o‘z kuchiga ishonishi, ruhiy tayyorgarligi masalalari hisobga olingan. Tarixiy merosimizga aylangan milliy o‘yinlar, poygalar, har xil bellashuvlar, musobaqalar va marosimlar ajdodlarimiz hayoti davomida rivojlanib, saqlanib kelmoqda. Xalq sayllari va bayramlarini milliy o‘yinlarsiz tasavvur etish qiyin. Yoshi ulg‘aygan ustozlar o‘z shogirdlariga oq fотиha berganlar. Bayram va sayllarda o‘zaro kurashlarni o‘tkazish ikki tarafning o‘zaro bellashuviga asoslangan. Bunda qatnashchilar jamoa bo‘lib harakat qilishgan, ishtirokchilarning baquvvatligi, epchilligi va chaqqonligi, qiyinchilikka chidamliligi, tirishqoq va tadbirkorligi g‘alabani belgilagan. Milliy xalq o‘yinlari har bir xalqning ma’naviy merosi, qadriyatlari va tarixiy tafakkurining ajralmas qismidir. Ular asrlar davomida shakllanib, avloddan-avlodga o‘tgan holda nafaqat madaniy boylik sifatida, balki tarbiyaviy vosita sifatida ham e’tirof etilgan. Xalq o‘yinlari orqali bolalar va yoshlar jismonan chiniqadi, aqliy va ruhiy salohiyatini rivojlantiradi, eng muhimi esa o‘z xalqining tarixiga, madaniyatiga va Vataniga nisbatan hurmat va muhabbat tuyg‘usini shakllantiradi.

Materiallar va usullar. Milliy xalq o‘yinlarining mazmuni, shakli va tarbiyaviy jihatlari tahlil qiladigan bo‘lsak, ular quyidagilardan iborat.

Nazariy tahlil: O‘zbek xalqining an’anaviy o‘yinlariga oid adabiyotlar, maqolalar, folklor namunalarini o‘rganish orqali ularning vatanparvarlik bilan bog‘liq jihatlari aniqlab chiqildi.

Amaliy kuzatuv: Maktab, mahalla va xalq sayillarida o‘tkaziladigan o‘yinlar kuzatilib, ularda aks etgan vatanparvarlik g‘oyalari tahlil qilindi.

Suhbat: O‘yinlarda faol ishtirok etgan yoshlar, ustozlar va faxriylar bilan olib borilgan suhbatlar orqali ularning ushbu o‘yinlar orqali qanday tarbiyaviy xulosalarga kelgani aniqlashtirildi.

Tadqiqot uchun tanlangan asosiy o‘yinlar quyidagilar:

- ❖ Uloq-ko‘pkari
- ❖ Arqon tortish
- ❖ Quvlashmachoq
- ❖ G‘oz ovi
- ❖ Tosh ko‘tarish
- ❖ Belbog‘li kurash

Bu o‘yinlarning har biri jismoniy chiniqish bilan birga, g‘urur, jasorat, jamoaviylik, fidoyilik, qat’iyat, ustozga hurmat, ota-onaga sadoqat, vatanga sadoqat kabi fazilatlarni o‘z ichiga oladi.

Kurash, ko‘pkari singari xalq o‘yinlari va sportning ommaviy turlari qadimdan xalq orasida xayr-saxovatni namoyon etgan. Mashhur uloqchilar, polvonlar, xalq o‘yinlari ishtirokchilari tez-tez musobaqalar o‘tkazib, bellashuvlardan to‘plangan mablag‘ni yetim-esirlar, ko‘p bolali oilalar hamda qariyalarga hadya etganlar, ko‘priklar, masjidlar, madrasalar, kanallar, yo‘llar va boshqa xalq hasharlarida ishtirok etganlar. Bu yoshlarni Vatanni sevishtirish, xalqiga xizmat qilish, mehnatsevarlik, mehr-saxovat, halollik va poklik ruhida tarbiyalashda muhim rol o‘ynagan. Xalqimiz halol kurashchilarni, mard polvonlarni, chapdast va mohir uloqchi chavandozlarni olqishlagan. Milliy xalq o‘yinlarining g‘oliblari nafaqat chiroyli harakatlari uchun, balki tantiligi, mardligi, chapdastligi uchun ham qadrlangan. Vatan himoyachilari bo‘lgan jangchilarni tayyorlashda “Quvlamaqchoq”, “Soqqa”, “Bekinmachoq”, “Ko‘kterak”, “Yetti tosh”, “Lanka”, “Besh tosh”, “Podachi”, “Chavandoz”, “Chaqqonlar va merganlar”, “Chillik” kabi milliy o‘yinlardan keng foydalanilgan. Bu o‘yinlar harbiylarni jangovar holatda saqlash uchun xizmat qilgan.

Xalqimiz bayram sayllari va to‘ylarda milliy kurash musobaqalarini doimiy o‘tkazib kelmaganlarida, bugungi kunga kelib eng asosiy milliy sport turi bo‘lgan kurash yo‘q bo‘lib ketishi mumkin edi. Eng qadimiy va milliy an‘analarimizdan hisoblangan poyga, qiz quvdi, kim uzoqqa otadi mashqlari, ot sporti (ko‘pkari)ning taqdiri ham xuddi shunday bo‘lishi mumkin edi. O‘zbek xalqi bu o‘yinlarga asrlar davomida murojaat etgan va ulardan iftixor tuyg‘an. Aslini aytganda, milliy o‘yinlar zamirida kattaga hurmat, yoshlariga mehr-shafqat, bolalar kamoli va tarbiyasi, ota-onalarning farzandlari oldidagi majburiyatlari, farzandlarning ota-onaga mehr-sadoqati, mas’uliyati mujassamlashadi. Shu sababdan ham, ajdodlarimiz kelajak avlodlariga xalq qahramonlarining jasoratlari, matonat, do‘stlik, ahillik, hamjihatlik fazilatlarini o‘zida aks ettirgan rivoyat va dostonlar, ertak va afsonalarni so‘zlab berganlar. Yoshlar ongida halollik, rostgo‘ylik, to‘g‘risozlik, nohaqlikka nisbatan murosasizlik, raqibni hurmat qilish kabi fazilatlarni singdirishni milliy xalq o‘yinlari asosida olib borganlar. Bunday o‘yinlarda mag‘lub

bo‘lgan raqib ustidan kulish qat’iyan taqiqlangan, aksincha, uning xato va kamchiliklari birgalikda hal etilgan va tarbiyalangan.

3. **Natijalar.** O‘rganilgan o‘yinlar asosida quyidagi natijalar aniqlandi:

Vatanparvarlik timsollari: Xalq o‘yinlari orqali o‘z yurtiga muhabbat, milliy g‘urur, himoya va fidoyilik g‘oyalari yoshlar ongiga singdiriladi. Masalan, uluq-ko‘pkari o‘yinida chavandozlarning jasorati, tezkorligi va kuchi Vatan himoyachisi obrazini yaratadi. Tosh ko‘tarish o‘yinida esa kuch va bardamlik, kurashda esa jasorat va g‘alabaga intilish hissi tarbiyalanadi.

Jamoaviylik va birlik: Ko‘pchilik o‘yinlari guruh bo‘lib o‘ynaladi. Bu esa ishtirokchilarda jamoa ruhini, bir-biriga tayanishni, o‘zaro hurmatni rivojlantiradi. Arqon tortish, belbog‘li kurash kabi o‘yinlar raqobat bilan birga do‘stlikni ham mustahkamlaydi.

An‘analarni davom ettirish: Xalq o‘yinlari orqali ajdodlarimiz merosi yosh avlodga yetkaziladi. Bu orqali tarixiy xotira, milliy qadriyatlarga sadoqat kuchayadi. G‘oz ovi, quvlashmachoq kabi o‘yinlar qadimiy urf-odatlarimizni eslatadi.

Tarbiyaviy ta’sir: O‘yinlar faqat jismoniy faollik emas, balki axloqiy tarbiyani ham o‘z ichiga oladi. Katta yoshdagilarga hurmat, kichiklarga e’tibor, mehnatsevarlik, qat’iyat, mehnatga munosabat kabi qadriyatlar o‘yinlar jarayonida bevosita o‘rgatiladi.

Milliy xalq o‘yinlari bolalarda ijodiy faoliyat va tashkilotchilik qobiliyatlari yuksalishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy maqsad yo‘lida o‘z hamrohini qo‘llab-quvvatlash, mustaqil ravishda yoki tengdoshilari bilan birga biror masala yuzasidan qaror qabul qilish ijodiy tashabbuskorlik namunasi hisoblanadi. Har qanday milliy xalq o‘yinlari yoshlarda juda muhim insoniy sifat va xususiyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ma’lumki, har bir xalqning mehnat faoliyati ma’lum darajada uning milliy o‘yinlariga ko‘chgan. Aniqrog‘i, xalqning yashash ehtiyojlarining bir ko‘rinishi bo‘lgan xalq o‘yinlari shu zamin vakillari bo‘lmish yoshlarning kelajakda aynan shu milliy ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli turmush kechirishini ta’minlashga zamin yaratgan. Har bir bola rivojlanish bosqichini birinchi navbatda o‘yindan boshlaydi. Bu jarayonda milliy o‘yinchoqlar muhim ta’lim-tarbiya vositasi hisoblanadi. Azal-azaldan xalqimiz bola tarbiyasida turli-tuman o‘yinchoqlardan foydalanib kelgan, ularning ijobiy hislatlaridan unumli foydalangan. Shu bilan bir qatorda, milliy o‘yinlarni amalga oshirishda ham xalq o‘yinchoqlariga keng o‘rin berilgan. Hunarmandlar esa loy, yog‘och, jun, mato va boshqa materiallardan bolalar uchun turli xil o‘yinchoqlar yasaganlar.

O‘yinchoqlar yasash asrlar davomida takomillashib, rivojlanib borishi natijasida bugungi kundagi o‘ziga xos, bejirim, takrorlanmas o‘zbek milliy o‘yinchoqlari vujudga kelgan. Milliy o‘yinchoqlarda xalqning turmushi, uning qadriyatlari, orzu-istaklari mohirona tasvirlangan. Ayniqsa, odamlar ko‘p to‘planadigan bozorlar, bayramlar va ommaviy xalq sayillaridagi tomoshalarda milliy o‘yinlarni namoyish qilishda o‘yinchoqlardan keng foydalanilgan. Bunday tomoshalarda insoniylik, aql, idrok, farosat, mardlik, xalqparvarlik, shijoat kabi oliyjanob xislatlar ulug‘langan bo‘lsa, yovuzlik, qalloblik, tekinxo‘rlik, manmanlik, yalqovlik kabi salbiy sifatlar qattiq hajv ostiga olib qoralanadigan bo‘lgan. Xalqimizning ming yillarni o‘z ichiga

olgan tarixini o‘zida aks ettiruvchi va bugungi kundagi mavjud urf-odatlar, qadriyatlari mana shunday qo‘g‘irchoq va boshqa o‘yinlar orqali yoshlar ongiga singdirilgan. Qo‘g‘irchoqlar va ular orqali turli o‘yinlarning tashkil etilishi oilada bolalarni har tomonlama - aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik shakllantirishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

Muhokama. Milliy xalq o‘yinlarining asosiy xususiyatlaridan biri bu ularning tabiiyligi va hayotiyligidir. O‘yinlarda ishtirok etish bolalar uchun majburiy emas, balki ular o‘z ixtiyori bilan, zavq bilan qatnashadilar. Bu esa tarbiyaviy ta’sirni kuchaytiradi. Har bir o‘yin o‘ziga xos qoidalari bilan birga, axloqiy-ruhiy mezonlarni ham o‘z ichiga oladi. Masalan, quvlashmachoq o‘yinida tezkorlik va ziyraklik bilan birga do‘stona muhit muhim. Uloq-ko‘pkari o‘yinida esa halollik, kuch, tezlik bilan birga boshqalarga hurmat, nizolardan tiyilish, o‘zini nazorat qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi. Bularning barchasi yosh avlodni Vatanga sadoqat, el-yurtga muhabbat, ajdodlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi. O‘zbek xalqining milliy an‘analari o‘ziga xos turli-tuman marosimlarda yaqqol ko‘rinadi. Yoshlar vatanparvarligining shakllanishi ularning milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishi bilan mushtarakdir. Vatanparvarlikni shakllantirishda xalq milliy o‘yinlari, madaniyati, san‘ati va adabiyoti, turmush tarzi, axloqi, e’tiqodi, ijtimoiy ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odatlar, marosimlar, an‘analar alohida e’tiborga molik qadriyat sanaladi. Har bir xalq marosimlari kishilarning ijtimoiy manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Ularda xalqning o‘ziga xosligi, quvonch, sevinchi, g‘am-tashvishi, orzu-umidi, intilishi namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Milliy xalq o‘yinlari yosh avlodni jismoniy, aqliy va ma’naviy jihatdan tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Ular orqali yoshlarda vatanparvarlik, jasorat, birdamlik, sadoqat, hurmat va fidoyilik kabi fazilatlar shakllanadi. Globallashuv davrida bu kabi qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirish ayniqsa muhim. Tavsiya sifatida, xalq o‘yinlarini:

- ❖ maktab va oliy ta’lim muassasalarining tarbiya dasturlariga kiritish;
- ❖ sport va madaniy tadbirlarda keng ommalashtirish;
- ❖ ommaviy axborot vositalarida targ‘ib qilish;
- ❖ zamonaviy texnologiyalar orqali virtual o‘yin shaklida rivojlantirish;

kabi choralar orqali milliy o‘yinlar orqali vatanparvarlik ruhini mustahkamlash mumkin. Bu esa nafaqat yoshlar tarbiyasiga, balki milliy o‘zlikni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Xullas, o‘zbek xalqining marosim, an‘ana, milliy o‘yinlari uning turmush tarzi, milliy xususiyati, ijtimoiy psixologiyasi, tafakkurlash usulidan kelib chiqqan bo‘lib, mazkur xalqning ma’naviyatini belgilab beradi. Biz sobiq ittifoq davrida yo‘l qo‘yilgan o‘tmish xatolarni takrorlamasligimiz uchun o‘zbek xalqining o‘ziga xos va mos o‘zbekona milliy udumlari, urf-odatlar va marosimlarini hamda ular zahirida saqlanib kelinayotgan milliy o‘yinlarimizni yanada kengroq va chuqurroq o‘rganmog‘imiz, tahlil qilmog‘imiz, oilalarda ularni kundalik turmush tarziga aylantirmog‘imiz, inson kamolotida milliy qadriyatlarning nechog‘lik ahamiyatga ega ekanligini farzandlarimiz ongiga, tafakkuriga singdirib bormog‘imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaev A., Milliy xalq o‘yinlari va sog‘lom avlod tarbiyasi, <https://cyberleninka.ru/>
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis 4 jildlik. T., 1997.
3. Ehson Mirzo., Milliy xalq o‘yinlari – millat yoshlarining g‘ururi, <https://jizzax.uz/>
4. Utepbergenov A.Q., Hozirgi davrda navqiron yoshlar tarbiyasida xalq o‘yinlarining ta’lim-tarbiyadagi ahamiyati, Jismoniy tarbiya va sport jurnali, 2015, 2-son.
5. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi, Xalq o‘yinlari, <http://ich.uz/>
6. O‘zbekiston-Germaniya do‘stlik jamiyati, Xalq o‘yinlari va boshqa ommaviy ko‘ngil ochishlar, <http://www.ude.uz/>
7. Xudoyberdieva A., Milliy xalq o‘yinlari, <https://soglom.uz>
8. Ochilov O.A., Yusupova N.R., Xalq o‘yinlarining turlari va an‘analari, T., 2016.
9. Xabibulla G‘ofur., Xalq o‘yinlari, qo‘shiqlar va an‘analariga bir nazar, Kamalak, 1992.